



## Korxonalar va tashkilotlar (2019-yil 1-iyun holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan  
o'tgan

13465  
ta

2019-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 2385 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1389 taga ko'pdir.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan

13335  
ta

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3142 ta (30,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13335 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil  
etilganlar

2385  
ta

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-iyun holatiga)

13465 tani  
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar  
soni, birlikda



28,5 %




O'tgan yilning shu  
davriga nisbatan  
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-iyun holatiga 13465 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,5 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 22,6 % savdo, 16,7 % sanoat, 8,3 % qurilish, 11,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (3044 ta) savdo, (2247 ta) sanoat, (1122 ta) qurilish, (1478 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1062 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (524 ta) tashish va saqlash, (242 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (159 ta) axborot va aloqa hamda (3587 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 13335 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3142 ta (30,8 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlar

# Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3768 ta), Karmana (2229 ta), Qiziltepa (1495 ta) va Xatirchi (1399 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (556 ta), Konimex (438 ta) hamda Tomdi (237 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-may oylarida 2385 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1389 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (804 ta), sanoat (533 ta), qurilish (174 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (210 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (30 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (24 ta), tashish va saqlash (69 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



804

Tashish va saqlash



69

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



210

Qurilish



174

Sanoat



533

Axborot va aloqa



30

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



24

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



298


Boshqa turlari



243


# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (543 ta), Karmana (324 ta), Qiziltepa (302 ta) va Xatirchi (293 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (156 ta), Konimex (84 ta) hamda Tomdi (50 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 11280 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



154 ta


**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 marta o'sgan.**


**Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.**

2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 154 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 85 taga yoki 2,2 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 97 tasi qo'shma, 57 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahar 59 ta (jamidagi ulushi 38,3 %), Karmana 32 ta (20,8 %), Nurota 12 ta (7,8 %) tumanida hamda Zarafshon shahar 11 tani (7,1 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Konimex 6 ta (3,9 %), Uchquduq 4 ta (2,6 %) va Tomdi 3 ta (1,9 %) tumanlarida tashkil etgan.




# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



1


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 41 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32 taga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 6 ta, Eron Islom Respublikasi 7 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 2 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari 3 ta, Qozog'iston Respublikasi 3 ta, Afg'oniston Respublikasi 1 ta, Vengriya Respublikasi 2 ta, Hindiston Respublikasi 1 ta, Tojikiston Respublikasi 1 ta, Turkiya Respublikasi 2 ta, Turkmaniston Respublikasi 1 ta, Isroil Davlatlarida 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 21 ta sanoat, 4 ta qurilish, 1 ta savdo, 9 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 4 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-iyun holatiga)**



*2019-yil 1-iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11206 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 37,4 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-may oylarida 2303 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1459 taga ko'proqdir.*






•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng katta  
ulushi

•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng kichik  
ulushi



•Navoiy shahri  
29,0 %



•Navbahor tumani  
9,0 %




•Karmana tumani  
17,7 %



•Nurota tumani  
7,8 %



•Qiziltepa tumani  
11,2 %



•Uchquduq tumani  
4,0 %




•Xatirchi tumani  
9,7 %



•Konimex tumani  
2,8 %




•Zarafshon shahri  
7,3 %



•Tomdi tumani  
1,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11206 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3009 ta (26,9 %) – savdo, 2201 ta (19,6 %) - sanoat, 1119 ta (10,0 %) - qurilish, 1434 ta (12,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1053 ta (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 511 ta (4,6 %) - tashish va saqlash, 180 ta (1,6 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 148 ta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1551 tasi (13,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

34,9 %



Sanoat

23,1 %



Qurilish

7,5 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

9,1 %



Tashish va saqlash

3,0 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

12,9 %



Axborot va aloqa

1,3 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,0 %




Boshqa turlar

7,2 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 803 ta, sanoat 532 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 296 ta, qurilish 173 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi 210 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 30 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 23 ta hamda tashish va saqlashda 69 ta tashkil etilgan.


# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahri (517 ta), Karmana (315 ta), Qiziltepa (291 ta) va Xatirchi (291 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Tomdi (48 ta), Konimex (79 ta) hamda Nurota (137 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

1-iyun holatiga




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 25,7 % yoki 399 tasi sanoat, 18,7 % yoki 290 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 18,4 % yoki 286 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,0 % yoki 389 tasi savdo, 1,4 % yoki 22 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,0 % yoki 16 tasi qurilish, 1,0 % yoki 16 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 15 tasi axborot va aloqa hamda 7,8 % yoki 120 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Navoiy viloyati statistika  
boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:71-230-84-56**